



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI

Q A R O R I

2023-yil “28” aprel

11 - q/q / 8 - q/q - son

Toshkent sh.

**Oliy ta'lif muassasalarining
professor-o'qituvchilar tarkibi va
rahbar xodimlari mehnatiga haq
to'lashning bazaviy lavozim
maoshlari miqdorini tasdiqlash
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-martdagi PF-45-son “Ish haqi miqdorini oshirish to'g'risida”gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi 164-sonli “Respublika oliy ta'lif muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida”gi qarorining 4-ilova 11-bandini bajarish maqsadida

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-martdagi PF-45-son Farmoniga muvofiq byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori oshishi munosabati bilan oliy ta'lif muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi va rahbar xodimlari mehnatiga haq to'lashning bazaviy lavozim maoshlari Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qayta ishlab chiqilganligi inobatga olinsin.

2. 2023-yil 1-maydan oliy ta'lif muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibining bazaviy lavozim maoshlari miqdori 1 - ilovaga, rahbar xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari miqdori 2 - ilovaga hamda boshqa xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari 3 - ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Respublika oliy ta'lif muassasalari rektorlari, filiallar direktorlariga:

oliy ta'lif muassasasi rahbar, professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlari ish haqlarini ilovadagi bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari bo'yicha o'z vaqtida qayta hisob-kitob qilish;

2023-yil 1-maydan e'tiboran oliy ta'lif muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi va rahbar xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy

lavozim maoshlari miqdorini o‘zgarishi munosabati bilan qo‘shimcha talab etiladigan mablag‘lar bilan o‘z vaqtida ta’minlasinlar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2022-yil 31-maydagи 22-Q/Q, 47-2022/QQ-sonli qarori 2023-yilning 1-mayidan boshlab o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorati Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti boshlig‘i B.Oxunov hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri o‘rbinosari E.Muxitdinovlar zimmasiga yuklatilsin.

**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vaziri**



I. Abduraxmonov

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik
vaziri**



B. Musayev

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi va Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil "28" apreldagi
11-q/q / 8-q/q - son qaroriga
1-Ilova

**Oliy ta'lif muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi mehnatiga haq to'lash bo'yicha
bazaviy lavozim maoshlari
M I Q D O R I**

(so'm)

Lavozimlar nomi	Bazaviy lavozim maoshlari miqdori
1. Kafedra mudiri:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	10 926 455
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	10 250 593
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lmanan	9 039 671
2. Professor:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga va professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	10 419 558
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga va dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	9 800 017
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	9 349 442
3. Dotsent:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	8 814 384
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	8 251 165
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lmanan	7 378 173
4. Katta o'qituvchi:	
ilmiy darajaga va ilmiy unvonga ega bo'lgan	7 687 946
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan	7 237 370
ilmiy unvonga yoki ilmiy darajaga ega bo'lmanan	6 617 828
5. Assistent, o'qituvchi:	
ilmiy darajaga va ilmiy unvonga ega bo'lgan	6 786 795
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan	6 336 218
ilmiy unvonga yoki ilmiy darajaga ega bo'lmanan	5 885 643
6. O'qituvchi-stajyor	
Izohlar:	
1. Ushbu ilovada nazarda tutilgan bazaviy lavozim maoshlari kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lif muassasalarida (markazlar, institutlar, fakultetlarda) tegishli lavozimlar uchun ham qo'llaniladi, qonun hujjalari nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.	
2. Professor unvoniga ega bo'lmanan, biroq fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan, professor lavozimiga bir muddatga qabul qilingan shaxslarga bazaviy lavozim maoshi 2023-yil 1-maydan boshlab - 8 814 384 so'm miqdorda belgilanadi.	

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil "28" apreldagi
11-q/q / 8-q/q - son qaroriga
2-Ilova

**Oliy ta'lim muassasalarining rahbar xodimlari mehnatiga haq to'lash
bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari
M I Q D O R L A R I**

(so'm)

Lavozimlar nomi	Bazaviy lavozim maoshlari miqdori
1. Rektor:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	11 602 319
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	11 151 743
2. Prorektor:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	10 982 779
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	10 419 558
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lмаган	9 574 729
3. Filial direktori:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	10 982 779
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	10 419 558
4. Filial direktorining o'rinosi:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	10 419 558
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	9 940 822
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lмаган	9 208 636
5. Dekan:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	10 419 558
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	9 800 017
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lмаган	8 814 384

6. Dekan o‘rinbosari:

fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo‘lgan	9 800 017
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan	9 349 442
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo‘lmagan	7 687 946

Izoh:

Ushbu ilovada nazarda tutilgan bazaviy lavozim maoshlari kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’lim muassasalarida (institutlarda, fakultetlarda) tegishli lavozimlar uchun ham qo’llaniladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil "28" apreldagi
11 - q/q / 8 - q/q - son qaroriga
3-Ilova

**Oliy ta'lim muassasalarining boshqa xodimlari mehnatiga
haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari
M I Q D O R I**

(so'm)

Lavozimlar nomi	Bazaviy lavozim maoshlari miqdori
1. Axborot texnologiyalari markazlari muhandislari:	
1 – toifali	1 565 980
2 – toifali	1 452 002
Toifasiz	1 342 604
2. Madaniyat va san'at ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar (pedagoglar) tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari konsertmeysterlari:	
Yetakchi konsertmeyster	3 841 650
Konsertmeyster	3 419 325
3. Ilmiy kengashning ilmiy kotibi, oliy ta'lim muassasasi kengashining kotibi:	
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan	4 824 912
ilmiy darajaga ega bo'lмаган	4 017 632
4. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi	
	1 452 002